

Sharof Rashidov badiiy ijodida ulug`vorlik kategoriyasi mohiyatining ifodalanishi

Radjabboyeva X.M.-ADTI Magistrtura bo`limi tyutori

Ilmiy rahbar : O`roqova O.J.-Falsafa fanlar doktori

Sharof Rashidov badiiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar, qahramonliklar, jasorat, xalqparvarlik bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg`unlashdi. Barqarorlik, jamiyatda adolat ustivorligi, shaxsning erkin va hurfikrlilik asosida faoliyat olib borishi ijtimoiy tizimning ulug`vorligi aks ettirildi. "G`oliblar" (1951) –yozuvchining birinchi qissasi bo`lib, urushda keyingi o`zbek xonadonining osoyishtalikka ingan, kimningdir bolasi, kimningdir otasi urushdan qaytmagan, ayni mehnat qizigan vaqtlari yozilgan.

"Suv keltirgan –elda aziz" maqolining amaldagi isboti qissaning asosini tashkil qiladi. Asarda tasvirlangan Oyqiz, Olimjon, Lolaxon, Halim bobo obrazlari orqali yangi yerlarni o`zlashtirish, suv manbaini ko`paytirish, mehnatga yangi munosabat qirralari ochiladi. "G`oliblar" asari qahramoni Oyqizning ikki akasi Timur va Alisher urushdan qaytmaydi, bu judolikni ko`tarolmay onasi vafot etadi. Birgina suyanchi –otasi Umurzoq ota bilan urushga ketgan Olimjonning salomat qaytishiga umidvor Oyqiz mehnati, Oltinsoyning g`amda ham bayramda ham bir –birini qo`llab yashagan odamlarning kelajakka bo`lgan ishonchi, mehnatidan zavq olib, unumdor yrlarni o`zlashtirish yo`lidagi zahmati qissaning bosh mavzusidir.

Asarda ulug`vorlik muhokamasi, yuksak burch, mehnat oliy darajada tasvirlandi. Inson ulug`lanishida qalbidagi buyuk muhabbat ahamiyatlidir. Vatanga bo`lgan muhabbati, sadoqati ham ijobiy tuyg`ular mahsuli natijasidir. Obrazlarda qahramonlik ulugvorlikka xos estetik va axloqiy sifat to`la namoyon bo`ldi. Xalq fidoyilari, elu –yurt jonkiyarlarining qiyofalari bir vaqtning o`zida ham ulug`vorlikni, ham mardonavorlikni o`zida jamlay oldi.